



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYASI
QO'RQLASH NARYADLARINING TURLARI VA XIZMATINI
TASHKILLASHTIRISH TARTIBI**

Xaydarov Saidvaqqos Abbosovich

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

Magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: “dushmandan qo‘rqma- nodondan qo‘rq” buyuk ajdodlarimizdan biri bo‘lmish sohibqiron Amir Temurning ushbu so‘zlarni aytganiga bir-necha asr bo‘lgan bo‘lsada, hozirgi kunda ham o‘z quvvatini va o‘rnini yo‘qotmaganligi hech kimga sir emas. Biz ilm ahli esa ushbu misralardagi “nodon” bo‘lmaslik va halqning xavfsizligi yo‘lida doimo harakatdamiz. Ushbu maqolamiz ham qilingan sai-harakatlardan bir namuna sifatida e’tiboringa havola qilamiz.

Kalit so‘zlar: me’yoriy hujjatlar, “Krokus city Hall”, jinoyat omillari, “Navruz Mall”

“Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 28 iyul kuni Farg‘ona viloyatida o‘tkazilgan yig‘ilishida, yurtimizda jinoyatchilikni jilovlash hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi muammolarni tizimli hal etish, ayniqsa “huquqbuzarliklarning ijtimoiy profilaktikasi” usullari asosida ko‘chalarimiz va mahallalarimizda osoyishta muhitni yaratish bo‘yicha barcha mas’ul idora va jamoatchilik vakillarining faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yib, bu borada tub o‘zgarish yasash yuzasidan aniq vazifalar belgilab berildi.”

**O'zbekiston respublikasi Milliy gvardiyasi qo'mondonining
mamlakatimiz aholisiga murojaatidan**

Joylarda xizmat vazifasini o‘tayotgan naryadlarga berilgan imkoniyatlar ko‘lami keng bo‘lsada afsuski ularning ba’zilariga berilgan texnikalar soni va turi kamligi sodir etilayotgan jinoyatlar soni va ko‘lamini kengaytirishini hayotda bir-necha bor kuzatganmiz. Zero “hudud muhofazasi” deganda avvalo fuqarolarni himoya qilish, undan so‘nggina moddiy boyliklarning muhofazasi tushuniladi.

Shunday ekan:

Jinoiy ahamiyadga ega bo‘lgan omillarni bartaraf etish uchun, hududlarda xizmat faoliyatini amalga oshirayotgan naryadlarning texnik imkoniyatlarni, xavf ko‘lami va darajasiga muvofiq ravishda kengaytirishimiz lozim. Misol sifatida bozor



va boshqa jamoat joylarida xizmat faoliyatini olib boruvchi naryadlarning qurolyaroq ta'minoti havfsizlik no'rmalariga to'liq javob bermasligini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bunday joylarda xizmat olib boruvchi xodimlar asosan birgina rezina tayoq va xizmat ratsiyalari bilan ta'minlanganligi kishini xavotirga soladi. Ushbu naryadlar asosan ikki yoki to'rt kishidan iborat bo'lishi esa, hududlarda sodir bolishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlarning oldi olinishi uchun yetarli emas. Sababi bunday joylarda to'planadigan olomonni nazorat qilish va fuqaro xavfsizligini ta'minlab, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan katta jinoyatni o'z vaqtida oldini olish uchun, hodimlarning soni va texnik ta'minotini kuchaytirish lozim. Vaholanki jinoyatning zarar ko'lамини kamaytiruvchi omil avvalo, uni bartaraf etish emas, balki uning oldini olish hisoblanadi. Ikki yoki to'rt kishilik, faqatgina rezina tayoq bilan qurollangan xodimlarning imkoniyatlari, o'nlab kishi ishtirokida janjallar yoki qurolli bosqinlarni oldini olish va bartaraf etish uchun yetarli emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 fevraldagagi PQ-4997-sон qaroriga 3-ILOVAda ob'ektlarni qo'riqlash faoliyatini tashkil etish to'g'risida quyidagicha ko'rsatilgan.

Qo'riqlash bosh boshqarmasi bo'linmalari tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan ob'ektlarni hamda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga ko'ra mol-mulkni shartnomaga asosida qo'riqlashni amalga oshiriladi.

Qo'riqlash xizmati ko'rsatilishi qo'riqlash naryadlari faoliyatini tashkil etish hamda qo'riqlashning texnik vositalari orqali amalga oshiriladi.

Ob'ektni qo'riqlashni tashkil etishda uning joylashuvi va xususiyati, qo'riqlashning muhandislik va texnik vositalari bilan jihozlanganlik darajasi, nazorat-o'tkazish punktlarining turlari, soni, hududdagi kriminogen vaziyat va boshqa holatlar e'tiborga olinadi.

O'rganish natijalariga ko'ra qo'riqlash usullari, postlar (yo'nalishlar) soni, ularning joylashuvi, qo'riqlash vaqt, shuningdek, qo'riqlashning texnik vositalarini qo'llash orqali qo'riqlash tizimini takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Ob'ektning qo'riqlash tizimi ob'ektlar ma'muriyati va qo'riqlash xizmati vakillarining hamkorligida belgilanadi.

Ob'ektlarni qo'riqlash uchun postlar, yo'nalishlarni qo'yish hamda qo'riqlash naryadlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishning qoidalari va shartlari, tartibi, usul va uslublari Milliy gvardiya tomonidan, shuningdek, tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar bilan hamkorlikda belgilanadi.

O'ta muhim va toifalangan ob'ektlarni qo'riqlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq tashkil etiladi.



Texnik qo‘riqlash tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatning hammabopligrini ta’minlash maqsadida Qo‘riqlash bosh boshqarmasiga amaldagi tariflarni foiz hisobida kamaytirgan holda xizmat ko‘rsatishga ruxsat etiladi. Bunda ob’ektlar alohida guruhlarga (ijtimoiy ahamiyati, saqlanayotgan moddiy-tovar boyliklar miqdori, soni va boshqalarga asosan) tasniflanadi. Ob’ektlarni guruhlarga tasniflash tartibi Qo‘riqlash bosh boshqarmasi boshlig‘i tomonidan belgilanadi.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalarining faoliyatni quyidagi asosiy normativlar va mezonlar bilan baholanadi:

ob’ektlarni qo‘riqlash bo‘yicha faoliyatning samaradorligi, jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatilayotgan xizmatlarning sifati, shartnomaviy majburiyatlarga rioya etilishi;

zamonaviy qo‘riqlash axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (vositalarini) joriy etish va ko‘rsatilayotgan texnik xizmatning sifati;

ko‘rsatilayotgan xizmat turlarini kengaytirish, qo‘riqlanayotgan ob’ekt va fuqarolar xonardonlari sonining oshishi;

idoraviy qo‘riqlash bo‘linmalarining nazorat tekshiruvini o‘z vaqtida va sifatl o‘tkazish;

bo‘linmalarining jangovar tayyorgarlik holati, o‘quv mashqlari va mashg‘ulotlarining sifati;

shaxsiy tarkibning kasbiy tayyorgarligi sifati va axloqiy-ruhiy holati, Qo‘riqlash bosh boshqarmasi bo‘linmalarida intizom va qonun hujjatlariga rioya etilishining darajasi.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi xodimi, ishchi va xizmatchisi davlat organi vakili hisoblanadi va davlatning himoyasi ostida bo‘ladi.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi xodimi, ishchi va xizmatchisi xizmat vazifasini bajarish jarayonida faqat bevosita yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri boshlig‘iga (komandiriga) bo‘ysunadi. Faqat ushbu shaxslar uni naryaddan ozod qilish yoki almashtirish huquqiga ega.

Qonunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri vakolat berilgan shaxslardan tashqari hech kim Qo‘riqlash bosh boshqarmasi xodimining (xizmatchisining) qonuniy faoliyatiga aralashish, qonun hujjatlariga asosan Qo‘riqlash bosh boshqarmasi zimmasiga yuklatilmagan vazifalarni bajarishga majburlash huquqiga ega emas.

Xizmatni o‘tayotgan xodim (xizmatchi) qonunga zid bo‘lgan buyruq yoki farmoyish olganda, uni bajarishni rad etish huquqiga ega va belgilangan tartibda bu haqda boshlig‘iga (komandiriga) axborot berishi shart.



Qo‘riqlash bosh boshqarmasi shaxsiy tarkibidan faqat qo‘riqlash faoliyati bilan bog‘liq vazifalarni bajarishda (shartnomma asosida) foydalaniladi. Milliy gvardiya qo‘mondonining buyrug‘iga muvofiq Qo‘riqlash bosh boshqarmasi shaxsiy tarkibi jamoat xavfsizligini ta’minlash va jamoat tartibini saqlashga jalb etilishi mumkin.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi shaxsiy tarkibi maxsus tayyorgarlikdan, shuningdek, jismoniy kuch ishlatalishi, maxsus vositalar va o‘qotar quroq qo‘llanilishi bilan bog‘liq sharoitlardagi harakatlarga kasbiy yaroqliliginin tekshirish uchun yiliga bir marotaba tekshiruvdan o‘tadilar.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi mansabdor shaxslarga ob’ektlarning muhandislik va texnik mustahkamligidagi kamchiliklarni bartaraf etish va fuqarolar xavfsizligini ta’minlashga, shartnomaviy majburiyatlarni bajarishga, moddiy boyliklar saqlanishini ta’minlashga va qo‘riqlash xizmati xodimlari, ishchi-xizmatchilarining mehnat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan taqdimnomalar kiritish huquqiga ega. Belgilangan tartibda rasmiy ogohlantirish, shuningdek, huquqbazarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarga ogohlantirish xati kiritadi.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi xodimlari, ishchi va xizmatchilar g‘ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik, shuningdek, o‘z xizmat vazifasini lozim darajada bajarmaganlik uchun Qo‘riqlash bosh boshqarmasi xodimlari, ishchi va xizmatchilar qonun hujjalariга muvofiq javobgar bo‘ladi.

Qo‘riqlash bosh boshqarmasi xo‘jalik yuritishda (operativ boshqaruvsda) o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi, majburiyatlarni bajarish yuzasidan sudda da’vogar va javobgar bo‘ladi[5]. Albatta, ushbu vazifalarni bajarishda qanday tarkibda naryadlar joriy qilinishimiz kerak degan ta’biiy savol tug‘uladi. Ushbu savolga raxbariy xujjatlardan quyidagicha javob olamiz:

O‘zbekiston Respublikasining 778-soni qonuni Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 1-fevralda qabul qilingan Senat tomonidan 2022-yil 28-aprelda ma’qullangan. Unga ko‘ra qo‘riqlash faoliyatiga ma’sul bo‘lgan naryadlar tarkibi, ushbu tizimdagи sub’ektlar haqida quyidagicha so‘z boradi: **Idoraviy jihatdan tegishli bo‘Imagan qorovullik** — O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining shartnomma asosida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyyati organlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlarini qo‘riqlash uchun tuziladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;



idoraviy jihatdan tegishli bo‘lman harbiylashtirilgan qo‘riqlash —

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining o‘ta muhim hamda toifalangan obyektlarni, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslarning obyektlarini shartnoma asosida qo‘riqlash bo‘yicha maxsus vazifalarni bajarish uchun tuziladigan, xizmat faoliyati qorovullik xizmatini tashkil etish va o‘tash tartibi talablariga muvofiq tashkil etiladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy qorovullik — davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, tadbirkorlik subyektlarining o‘z obyektlarini qo‘riqlash uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklatilgan alohida xodimi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash — davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining hamda boshqa tashkilotlarning o‘z obyektlarini qo‘riqlash bo‘yicha maxsus vazifalarni bajarish uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladigan, xizmat faoliyati qorovullik xizmatini tashkil etish va o‘tash tartibi talablariga muvofiq tashkil etiladigan tarkibiy bo‘linmasi tomonidan amalga oshiriladigan qo‘riqlash faoliyatining turi;

idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining ishchisi va xizmatchisi — idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash hamda idoraviy qorovullik bo‘linmalarining qo‘riqlash faoliyatini boshqarish, nazorat qilish va amalga oshirish vazifalari o‘z zimmasiga yuklatilgan ishchisi va xizmatchisi;

nazorat-o‘tkazish rejimi — qo‘riqlanadigan obyektlarga (qo‘riqlanadigan obyektlardan) shaxslarning kirishini (chiqishini), transport vositalarining kirib kelishini (chiqib ketishini), mol-mulk olib kirilishini (olib chiqilishini), tashib kirilishini (tashib chiqilishini) nazorat qilish tartibini ta’minlovchi qoidalar majmui;

obyektning ichki rejimi — qo‘riqlanadigan obyektda belgilangan ichki tartib qoidalariga va yong‘in xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta’minlovchi tadbirlar majmui;

qo‘riqlanadigan obyekt — belgilangan tartibda qo‘riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning uchastkalari, transport vositalari, transportda tashiladigan yuklari, pul mablag‘lari, moddiy boyliklari va boshqa mol-mulki, shuningdek jismoniy shaxs;



qo‘riqlashning muhandislik vositalari — qo‘riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan mexanik jihatdan himoya qilish uchun qo‘llaniladigan qurilmalar va inshootlar;

qo‘riqlashning texnik vositalari — qo‘riqlanadigan obyektlarni tajovuzlardan himoya qilish uchun foydalaniladigan, mustaqil vazifalarni bajaradigan, konstruktiv jihatdan yakunlangan qurilmalar;

qo‘riqlash faoliyati — qo‘riqlanadigan obyektlarni himoya qilish, shuningdek yuridik shaxslarning qo‘riqlanadigan obyektlarida nazorat-o‘tkazish va obyektning ichki rejimlarini ta’minlash bo‘yicha faoliyat.

Qo‘riqlash faoliyatini amalga oshiruvchi subyektlar esa quyidagilarni tashkil etib, qo‘riqlash faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega:

- davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari;
- idoraviy harbiylashtirilgan qo‘riqlash bo‘linmalari;
- idoraviy qorovullik bo‘linmalari.

O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘riqlash faoliyatini chet davlatlarning jismoniy shaxslari va tashkilotlari, shu jumladan xususiy tashkilotlari tomonidan amalga oshirishga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan O‘zbekiston Respublikasi hududiga qisqa muddatli tashrif bilan kelgan oliy darajali mehmonlar xavfsizligini ta’minlash hollari mustasno.

Davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari – O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Davlat xavfsizlik xizmatining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Davlat bojxona qo‘mitasining hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiruvchi harbiy tuzilmalarning tegishli bo‘linmalari davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalaridir.

Davlat organlarining qo‘riqlash bo‘linmalari jamoat tartibini saqlash va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun belgilangan tartibda jalb qilinishi mumkin[6].

Xozirgi kunda hususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi, ommaviy tadbirlar o‘tkazish imkoniyati mavjud bo‘lgan, hamda muntazam aholi gavjum bo‘lgan joylarda, tadbirkorlik ob‘ektlarida asosan qo‘riqlash boshqarmasi xizmatchisi emas balki, yonlanma qorovullar ish olib boradi. Sababi, ushbu ob‘ekt raxbari ya’ni tadbirkor, davlat hodimlarini jalb qilish qimmatga tushishini inobatga olib aholi orasida sport bilan shug‘ullanib yurgan jismoniy baquvvat fuqarolarni nazoratchi sifatida yollashni afzal ko‘radi. Bunday holatlar esa, ob‘ektga qurolli



xujumlarni oldini olish, agar xujum sodir bo‘lganda ham uni bartaraf etish bo‘yicha vazifalarning operativligini ta’minlay olmaydi. Nazoratchilarning texnik, psixologik va jismoniy tayyorgarligi darajasi, davlat o‘rganlari hodimlarichalik emasligi, hamda qurolli xujumlar sodir bo‘lganda xarakatlanish tartibi bo‘yicha ko‘nikmalari mavjud emas.

Misol qilib yurtimiz hududida joylashgan har qanday hususiy savdo va ko‘ngil ochar maskanlar hususan “Mega Planet”, “Toshkent city Mall”, “Inbazar”, “Indenim savdo majmualari” va Andijon viloyatida joylashgan “Navro‘z Mall”ga e’tiborimizni qaratamiz. Yuqorida ko‘rsatilgan joylarga tashrif buyurganimizda, u yerda xizmat olib borayotgan kishilar “qo‘riqlash boshqarmasi”dan emas balki hudud egalari tomonidan yonlangan “yonlanma qorovullar (hususiy tashkilot xodimlari)” ekanligiga guvox bo‘lishimiz mumkin. Ho‘s sh bu hodimlarning texnik, jangovar va psixologik tayyorgarligini kim tekshiradi? Jinoyat alomatlari sezilganda yoki jinoyat sodir bo‘lganda ularning to‘g‘ri va aniq harakat qila olishiga kim kafolat beradi? Va eng asosiy savol shubxali shaxslarni aniqlay olish va terroristik hujum yoki boshqa jinoyatlarga qarshi tura olish samaradorligi doimi nazoratdami(kim tomonidan nazorat qilinad)? degan savollar ochiqligicha turgani kishini havotirga soladi.

Bunday hususiy maskan egalari jinoyat sodir bo‘lganidan so‘ng “ular shunchaki nazoratchi edi, qo‘riqchi emas.” “ularning vazifasi faqatgina tartibni nazorat qilish va mayda janjallarni oldini olish” deya o‘zini oqlashi va barcha ayibni davlat kuch tuzulmalariga yuklab qo‘yishi mumkinligi hech kimni havotirga solmayaptimi? Vaholanki ularning, hujum yoki boshqa jinoyatdan aziyyat chekgan aholiga hodisa sodir bo‘lgandan so‘ng bildiradigan hamdardligi hech kimga kerak emas va foyda keltirmasligini anglagan holda, davlat qo‘riqlash boshqarmalari o‘z nazorati ostiga olishi lozimligini ta’kidlab o‘tishimiz lozim deb topdik. Bunday harakatlarni esa o‘z navbatida bir qancha yaxshi va qulay tomonlari mavjud. Masalan davlat qo‘riqlash boshqarmalari ning hususiy savdo va ko‘ngil ochar, davolash maskanlari va ko‘pgina odamlar yig‘iladigan joylarni o‘z nazoratiga olishi, nazorat ko‘lamini oshirib yangi shtablarni ochilishiga sabab bo‘ladi, bu esa o‘znavbatida ushbu boshqarmaga talab va e’tibor kuchayishiga, va yangi ish o‘rnlari ochilishiga turtki bo‘ladi.

Agarda yuqorida aytilgan “keskin” choralar noo‘rin deb topilsa, hususiy ob‘yektlarni qo‘riqlovchi yonlanma hodimlar nazoratini, ularga qo‘yiladigan talablar va standartlarni nazarda tutovchi qonun hujjatlarini tadbiq qilishimiz lozim va bu mas’ulayatni mas’ul davlat o‘rganlari, hususan “O‘zbekiston Respublikasi



Milliy gvardiya qoriqlash bosh Boshqarmasi” va “Favqulotda Vaziyatlar Vazirligi” zimmasiga yuklash taklifini beramiz.

Yuqoridagi takliflarning berilishi bezidan emas. Sababi dunyoda bo‘layotgan voqealar hozirda nafaqat bizni, balki butun dunyo ahlini taxlikali vaziyatga solib biz ilm ahlini ushbu masalalar ustida izlanishlar olib borib, bunday voqealar bizning yurtimizda ham sodir bo‘lishini oldini olish uchun harakat olib borishga undamoqda. So‘zimizga isbot sifatida quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

Joriy yilning 24 mart kuni Moskvaning Krasnogorsk viloyatida joylashgan “Krokus City Hall” savdo markazida sodir bo‘lgan terroristik hujumini keltirishimiz mumkin. Terroristlar bino hududiga kirib ichkarida bo‘lgan tinch aholiga qarata ayovsiz o‘q ota boshlagan. Terakt qurbonlari 137 kishiga yetdi, deya xabar beradi yakshanba kuni Rossiya Federatsiyasi tergov qo‘mitasining (TFR) Telegram kanalida. "Fojia sodir bo‘lgan joydan 4 ta jangovar ammunitsiya, 500 dan ortiq o‘qdorilar va 28 ta o‘qdon, hujumchilar qurollangan ikkita Kalashnikov avtomati topildi", deyiladi xabarda[8].

Hozirgi kunning eng dolzarb mavzularidan biri bo‘lib turgan ushbu mutxish voqeyadan hulosa qiladigan bo‘lsak mamlakatimizdagi yirik savdo majmua (tashkent city mall, navro‘z mall, eko bozorlarv.h.k.z)larda qo‘riqlash bosh boshqarmasining shaxodatlangan qorovullari harbiylashtirilgan qorovullar tarkibidan naryad hizmatini joriy etish masalasi ko‘rib chiqilishi lozim deb hisoblaymiz. Bu orqali biz quyidagi imkoniyatlarga ega bo‘lishimiz mumkin:

Birinchidan- Krokusda bo‘lib o‘tgan voqeyada qurollangan jangarilar tomonidan 18 daqiqa davomida tinch aholiga nisbatan quroq qo‘llangan. Agarda shunga o‘xhash ob‘yektlarda tashvish signali o‘rnatilsa zudlik bilan belgilangan shaxsiy tarkib vazifa bajarish uchun yetib keladi

Ikkinchidan- krokusda bo‘lib o‘tgan voqealardan so‘ng, ob‘yekt boshlig‘i (tadbirkor) tomonidan berilgan intervuga asosan, ushbu ob‘ektda joriy qilingan shtatlar bo‘yicha- qorovullar (suxbat davomida nazoratchi deya o‘z fikriga tuzatish kiritishga urungan) tomonidan qurolli terrorchilarga nisbatan qarshilik ko‘rsatishga erisha olmaganligini ta’kidlab o‘tdi. Agarda ob‘ektda sutka davomida qo‘riqlash uchun shaxodatlangan qorovul hamda ob‘yekt faol bo‘lgan davrda havfsizlikni ta’minalash maqsadida harbiylashtirilgan qorovul joriy etilganda qurolli qarshilik ko‘rsatish imkoniyati mayjud bo‘lar edi. Tabiiyki bizning yurtimizdaham shunga oxhash yirik majmualar yetarlicha, shunga qaramay qo‘riqlash hodimlari ushbu ob‘yektlarni xavfsizligini ta’minalash masalasida hozirgi kunda vazifa bajarmayapti. Bu holat esa o‘z-o‘zidan ob‘yektlar xavfsizligi ta’milanmaganligidan darak beradi.



Bundan tashqari tibbiyot birlashmalarida ham ushbu masala ochiqligicha qolmoqda. Shu sababdan tibbiyot hodimlariga nisbatan norozi kayfiyatdag'i fuqarolar va istalgan shaxslar tomonidan kaltaklanganligini, hamda ob'yeqtida xavfsizlik masalalari e'tiborga olinmaganligidan darak beradi. Vaholangki, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi 630-son qarorida – Qo'riqlash bo'linmalari Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan ro'yxatga muvofiq davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa tashkilotlarda tashkil etiladi.

Qo'riqlash bo'linmalarining tuzilmasi, ishchi va xizmatchilar sonining normasi va qo'riqlash bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi tegishli tashkilotlarning ushbu Namunaviy nizomga muvofiq ishlab chiqiladigan hujjatlari bilan belgilanadi.

Qo'riqlash bo'linmalarining ishchi va xizmatchilar tomonidan xizmatni o'tashni tashkil etish va xizmat o'tash tartibi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmatlari nizomi asosida ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (keyingi o'rinalar — Milliy gvardiya) bilan kelishilgan holda, o'z tizimida qo'riqlash bo'linmalari bo'lган tegishli tashkilotlar tasdiqlagan qoidalarga muvofiq belgilanadi.

Qo'riqlash bo'linmalarining ishchi va xizmatchilar o'z xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tegishli tashkilotlar tomonidan Milliy gvardiya bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda farqlovchi belgilari bo'lган formali kiyim-bosh kiyib yurish huquqiga ega.

Qo'riqlash bo'linmalari ishchi va xizmatchilariga tegishli tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda xizmat guvohnomalari beriladi.

Qo'riqlash bo'linmalari o'zlariga yuklangan vazifalarni bajarish uchun xizmat (qo'riqchi) itlaridan foydalanishi mumkin[7] ekanligi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagi qabul qilingan qonun hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya qo'riqlash Bosh Boshqarmasi" faoliyatini yo'lga qo'yib, uni tartibga solishda asos bo'lib hizmat qilayotgan bo'lsada, ulardag'i mavjut kamchiliklarni hayotda ro'y berayotgan voqe'a va xodisalardan kuzatishimiz mumkin.

Joriy yilning 4 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan, maktablarda Milliy gvardiya nazoratini o'rnatish haqida, sellektor yig'ilishida takidlاب o'tgan. 4 fevral kuni o'tkazilgan sellektor yig'ilishida hamda 5 fevral kuni imzolangan 55-sonli Prezident Qarorida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, harbiylashtirilgan qorovullarni maktab xavfsizligini ta'minlash maqsadida naryadga jalb etish, bunda maktabda mavjud uch nafar



qorovullar shtat birligini qisqartirib qoriqlash boshqarmasi tasarrufiga o'tkazish, bu bilan maktab xavfsizligini ta'minlash masalalari o'z yechimini topadi. Ushbu naryad xazmatini keyinchalik boshqa ta'lim muassasalari (texnikum va oliv ta'lim muassasalari)ga bosqichma bosqich joriy qilish masalasi ko'rib chiqilishini hamda ushbu ob'yektlarni qo'riqlash boshqarmasi nazoratida bo'lgan toyifalangan ob'ektlar qatoriga kiritishni taklif qilamiz. Yaqin o'tmishdan ma'lumki ishbu dargohlarda ham terroristik aktlar hamda qurolli hujumlar amalga oshirilgan. Bunga misol sifatida A.Q.Sh va Rossiyada

Hozirgi kunda ushbu ob'ektlarning o'ziga hosligidan hamda shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tahdidlardan kelib chiqib jalg etilgan naryadlarning jismoniy va maxsus tayyorgarligini rivojlantirish masalasiga ham e'tibor qaratish hamda tizimli nazoratni kuchaytirish va shuningdek yaxshi natija ko'rsatgan rag'batlantirish masalasiga ham e'tibor berish lozim bo'ladi. Buni qanday amalga oshiramiz? Degan savol har birimizni o'ylantirib qoyishi tabiiy.hozirgi kunda jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ajiratilayotgan qo'riqlash boshqarmasi shaxsiy tarkibini ushbu tadbir tashkilotchilari bilan tuzilgan moliyaviy shartnomalar asosida rag'batlantirishni yo'lga qo'yish orqali yuqorida ko'rsatilgan bandlarning birini bajarishga erishgan bo'lamiz.

Hulosa va taklif o'rniда:

- Savdo ob'ektlarida harbiylashtirilgan qorovul hamda shaxodatlangan tarkibidan naryad hizmatini joriy qilish hamda uning nazoratini amalga oshirish bo'yicha qonun loyihasini ishlab chiqsh
- Tibbiyat birlashmalarida turli ko'ngilsiz hodisalarni oldini olish maqsadida qo'riqlash boshqarmasi bilan shartnoma asosida xavfsizlikni jismoniy qo'riqlanishini tashkil etish.
- Maktablarda hozirgi kunda faoliyat olib borayotgan qorovullar shtatini qisqartirish orqali Milliy gvardiya qo'riqlash bosh Boshqarmasi harbiylashtirilgan qorovullarining 24 soat davomida faoliyat olib boruvchi naryadlarini joriy qilish.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. „Ўзбекистон Республикаси Миллий гвардияси Qўриқлаш бош бошқармаси тарихи“. *Ngoxrana.uz*. Qaraldi: 2020-yil 26-sentyabr.
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/O'zbekiston_Respublikasi_Milliy_gvardiyasi_qo'riqlash_xizmatim



3. [https://lex.uz/docs/-4602557 „O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining qo‘riqlash xizmati bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 930-szon 03.07.2019 y. qarori“]. Lex.uz. Qaraldi: 2020-yil 26-sentyabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiya Qo‘riqlash bosh Boshqarmasi bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlar ro‘yhatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamisining 930-ssonli qarori https://lex.uz/ru/docs/-4602557 dan olindi
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4997 sonli qarori https://lex.uz/docs/-5300150 dan olindi
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-778 sonli qarori https://lex.uz/uz/docs/-6066682 dan olindi
7. Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 1-noyabrdagi 630-szon qarori https://lex.uz/docs/6266410 dan olindi
8. Rossiya Federatsiyasi tergov qo‘mitasining (TFR) Telegram kanali